

XX ASR QRIM-TATAR ADABIYOTI VA CHERKEZ ALI IJODI**Rushana Zaripova***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat**o'zbek tili va adabiyoti universiteti**tayanch doktoranti*

Dunyodagi barcha millat va elatlarning o'zaro aloqalari insoniyatning o'zi kabi qadimiydir. Moziyga nazar tashlar ekansiz, tarix sahnasida paydo bo'lgan xalq borki hududiy va ma'naviy o'zaro yaqin bo'lgan elatlar bilan turli jabhada aloqa o'rnatganligini ko'ramiz.

Ayni damda o'ziga xos taraqqiyot jarayonidagi xalqlarning ozodlikka yo'naltirilgan maqsad, intilishlarida ham xuddi shunday chambarchas bog'liqliklarni his etishimiz mumkin. Bu ayniqsa, dini, tili, urf-odatlarini, dunyoqarashi yaqin millatlarda yanada kuchliroq seziladi. Xalqaro aloqaning behad jozibador shakllaridan biri bo'lgan o'zaro adabiy aloqalar misolida ham o'zgacha go'zallik va nafosatni ko'rishimiz mumkin. Chunki, bir oilaga mansub turkiy xalqlarning so'z san'ati sarchashmalari yagonaligi va birligi bilan xarakterlanadi. Hatto turli ijtimoiy o'zgarishlar, siyosiy ziddiyatlar davrlarida ham mushtarak adabiy an'analar o'z mohiyatini yo'qotmagan. Tabiiyki, bu ezgu hol xalqlarning iymon-e'tiqod yo'sini, turmush-muhit tarzi hamohangligi bilan izohlanadi. Aytish mumkinki, taraqqiyotning shunday ajib qonuniyati sababli uzoq moziydan o'tib kelgan "Kul Tegin", "To'nyuquq", "Bilga xoqon" bitiklari, badiiy namunalar umumturkiy obidalar, barcha turkiy millatga xos bebaho meros sanaladi. Mana shunday tarixiy jarayon sababli bugungi turkiy millatlar o'tmishdagi o'nlab allomalari ijodlaridan birdek iftixor hissini tuyadilar. Ularning asarlari ruhida ardoqli milliy qadriyatlar tarannumini va umuminsoniy g'oyalar tajassumini ko'radilar.

O'rta asrlarda hazrat Alisher Navoiy butun bir millatni ezgulik mayog'i sifatida olg'a chorlagan bo'lsa, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Ismoil Gaspirali qoloqlik botqog'iga botgan "turkiylar karvoni"ga sorbon bo'ldi deyish mumkin. Qora dengiz bo'yidagi Gaspra nomli qishloqda tug'ilgan Ismoilbek barmoq bilan sanarli buyuk shaxslardan bo'lib yetishdi. Ismoilbek Gasprinskiy. Bu nom yuz yil muqaddam turkiy dunyodagi eng mashhur nom edi. Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar. U chiqargan "Tarjimon" gazetasining 1908 yildagi 25 yillik to'yida Xitoyning "Tarancha" sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1911 yilda uning "Xo'jai sibyon" ("Bolalar muallimi") kitobi Bombeyda bosildi...¹

Biz ayni damda Ismoilbek Gasprinskiyning hayoti va ijodini yana qayta zikr qilib o'tmoqchi emasmiz. Aksincha, Ismoilbek g'aflat uyqusidan uyg'otgan millatlarning so'nggi yillardagi adabiy aloqalari, qrim-tatar adabiyotida bo'lgan o'zgarishlar xususida imkon qadar so'z yuritmoqchimiz.

¹ Қосимов Бегали. Исмоилбек Ғаспрали. Биографик очерк. Тошкент, 1992.

Ma'lumki, boshqa turkiy xalqlar singari Qrim-tatar tilidagi adabiyot ham o'zining qadimgi boy an'alariga ega. Bu adabiyot umum-turk adabiyotining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qrim yarim orolida yashagan turkiy xalqlar madaniyati juda boy va o'ziga xos xususiyatga ega. Negaki, bu yer Sharq va G'arb sivilizatsiyalari to'qnashgan xududda joylashgan. Tarixda juda ko'p mudhish voqealarni boshidan kechirgan qrim-tatar xalqi o'zining boy adabiy merosiga ega. Uzoq o'tmishga, go'zal folklor, xalq og'zaki ijodi namunalari ega qrim-tatar adabiyotida XX asr boshlariga kelib demokratik va ma'rifatparvarlik oqimlarining shakllanishi ko'zga tashlanadi. Takror bo'lsa ham aytish joizki, ayniqsa qrim-tatar ma'rifatpavari Ismoilbek Gasprialining faoliyati butun turk dunyosini g'aflat uyqusidan uyg'otishga katta turtki bo'ldi. Ismoil Gasprinskiy nomi bilan G'arb davlatlarida ham mashhur bo'lgan bu shaxsni Fransiyada tinchlikni saqlash uchun beriladigan Nobel mukofatiga tavsiya etishgan. Ismoilbek musulmon madrasalarida, keyin esa Rossiya va Yevropaning oliy o'quv yurtlarida o'qidi, Parijdagi mashhur Sarbona universitetida ham ta'lim oladi. Fransuz gazetalarida muxbir bo'lib ishladi.

Ismoilbek G'aspirali Qrimga qaytib kelib, ma'rifatparvarlik ishlari bilan shug'ullandi. Bog'chasaroyda «Tarjimon» nomli gazeta chaqardi. Bu gazeta keyinchalik butun musulmon dunyosiga mashhur bo'lib ketdi. Gazetada turkiy xalqlarning iqtisodiy siyosiy ma'naviy hayotiga bog'liq, nihoyatda dolzarb maqolalar e'lon qilinar edi. G'aspirali maorifni isloh qilish uchun o'z tajribalarini tavsiya etdi. Turkiy qavm bolalari ham tabiiy fanlarni o'rganish kerakligini targ'ib qildi. Uning nomi bilan bog'liq «Jadid maktablari» butun musulmon dunyosiga tarqaldi. U «Rossiya musulmonlari», «Xo'jai. sibyon», «Maktab va usuli jadid nadur» singari asarlar va yuzlab maqolalar yozgan. Bu asarlari turkiy xalqlarni birlashtirishga, ularning ma'naviyatini rivojlantirishga katta hissa bo'lib qo'shildi.

XX asr qrim-tatarlari adabiyoti turli janrlarda yozilgan boy adabiyot hisoblanadi. Lekin sovet hukumati qrim-tatar xalqini 1944 yili deportasiya qildi. Ular O'rta Osiyo respublikalariga asosan O'zbekistonga majburan ko'chib keltirildi. Xalq juda og'ir kunlarni boshidan kechirdi. Butun bir millat «sho'rolar dushmani» deb e'lon qilingan edi. Faqat 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib qrim-tatarlariga vataniga qaytishga ruxsat berildi. Shuning uchun qrim-tatarlarining keyingi yillardagi adabiyoti asosan O'zbekistonda yaratildi, desak xato qilmaymiz.

Bu davrda Shamil Alyadin, Abduraim Oltongli, Yusuf Bolat, Cherkez-Ali Ametov, Emil Amet, Riza Xamid, Ayder Osmon, Uriye Amet qizi singari ijodkorlar qrim-tatar adabiyotini rivojlantirishga o'zlarining katta hissasini qo'shishdi.

XX asr qrim-tatar adabiyotining yirik vakillaridan biri Cherkez-Ali Ametov 1925-yilda Qrimning Bog'chasaroy tumanidagi Bayatir (Qush qoya) qishlog'ida tug'ilgan. Taniqli qrim-tatar shoiri va yozuvchisi. Uning bobosi qrimtatar Amet Istanbulda ekanligida Malek Filsanga (u shoh Abdulhamid II ning rafiqasi Ehson Poshoning singlisi bo'lgan) uylangan. O'sha paytda Kavkazdan kelgan har bir kishiga Istanbulda Cherkez laqabi berilganligi uchun Alining bobosi qrimtatar Ametga ham

shunday laqab qo'yilgan. Cherkes Amet 1905 yilda oilasi bilan birga Qrimga qaytib keladi.

Cherkez Ali dastlab qishlog'idagi boshlang'ich maktabda, Yavr va Ko'kko'z qishloqlaridagi o'rta maktablarda tahsil oldi. Sovet hukumati qrim-tatar xalqini 1944 yili deportasiya qilinganida, Cherkez Alining oilasi ham surgun qilinadi. Uning onasi 1944 yilda surgun paytida yo'lda vafot etadi. Alining o'zi Usoldag lageriga jo'natiladi. U o'n yil davomida u yerda qoladi va 1954 yilda Stalin vafotidan so'ng ozod qilinadi. Cherkez Ali Qozog'iston va O'zbekistonda qurilish ishlarida haydovchi bo'lib ishlaydi. 1962 yilda u «Lenin bayrog'i» gazetasida, 1967 yilda esa G'afur G'ulom nomidagi nashriyotning Qrim tatarlari bo'limida ishlay boshlaydi.

Cherkas Ali Qrimdaligidayoq adabiy asarlar yozishni boshlagan edi. Uning birinchi she'rlari 1941 yilda Oqmachitdagi "Yosh leninchilar" to'plamida nashr etilgan. Ilk she'riy to'plami 1940-yilda "Irmoqlar" nomi bilan nashr qilingan.

Cherkes Ali tarjimalari bilan ham qrim-tatar adabiyotiga munosib hissa qo'shdi. Alisher Nevoiy, Nizomiy g'azallarini, Furqat, Hamza, Hamid Olimjon, Oybek, shuningdek, Konstantin Simonov va Lesya Ukrainkaning asarlarini qrim-tatar tiliga tarjima qildi. Adibning "Tirik gullar", "Guliston qizi" dostonlari, "Tug'ishganlar" (qissa va hikoyalar), "Orzularim", "Yer nafasi", "Ko'z nurlari" (she'riy to'plamlar), "Yashil to'lqinlar" (roman), kabi bir qancha kitoblari o'zbek va rus tillarida nashr etilgan.

Cherkez Ali 1995 yilda ona vataniga- Qrimga qaytib keldi. Qrim gazeta va jurnallarida o'z ijodini davom ettirgan ijodkor 2005 yil 21- fevralda Simferopolda vafot etgan.

Cherkez Alining ijodiga nazar tashlagan kitobxon, ularning aksariyatida Alining bolalik xotiralari, vatan sog'inchi, yurtdoshlar taqdiri singari tuyg'ularni ich-ichidan his etadi. Adib tilining shiradorligi, uslubining o'zgachaligi kitobxonni o'ziga jalb etadi. Cherkez Ali umrining asosiy qismini o'z vatani-Qrimdan olisda O'zbekistonda o'tkazgan bo'lsa-da, Qrimning olis tog'li qishloqlarida kechgan bolalik xotiralari, undagi ertaknamo hayot tarzi, qrim-tatar xalqining milliy-urf-odatlarini, sodda, to'g'riso'z, halol va samimiy insonlarning taqdiri ijodining har bir satrida tasvirlanadi. Tasvirlanganda ham chin yurakdan qo'shiqdek kuylanadi.

Adibning "Uchirim boshida" nomli hikoyasida hayotning turli ziddiyatli nuqtalarida kesishgan taqdirlar, o'sib kelayotgan yoshlar keksalarning bir xillik qobig'iga toqat qilolmasligi, o'z bilganlaricha ish tutishlari, keyinchalik hayot sinovlarini boshdan kechirgach barchasi iziga tushib ketishi Memedeminning o'gay qizi Shaziyaga yozgan maktublari asosida tasvirlangan bo'lsa, "Xayrli janjal", "O'zgarayotgan erkaklar" hikoyalari qrim-tatarlarning oddiy ijtimoiy hayoti tasvirlangan. "O'ksik kunlardan xotira", "Sariyog' surtilgan non" hikoyalari esa adibning bolaligi haqida so'zlovchi avtobiografik hikoyalardir.

Tarixda juda ko'p voqealarni boshidan kechirgan qrim-tatar xalqining og'zaki ijodida ko'plab qo'shiqlar, ertaklar va dostonlar mavjud. Bularning ko'pchiligi boshqa turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi asarlar bilan hamohang. Masalan, o'zbeklardagi «Zumrad va Qimmat» ertagining mazmuniga o'xshash "Elmaz va Esma" nomli qrim-

tatar xalqining ham ertagi bor. Bunda o'gay onaning zulmidan ozor chekkan yetim qizchani qismati, uning mehnatsevarligi va raxmdilligi tufayli baxtga erishganligi haqida hikoya qilinadi. Ertakda Elmaz degan qiz, otasi vafotidan so'ng o'gay ona va uning Esma ismli tantiq, erkatoiy qizi bilan birga yasharkan. Oilaning og'ir yumushlarini Elmaz bajarar, lekin evaziga hech qachon rahmat eshitmasdi. Yillar o'tadi. Elmaz va Esma voyaga yetadilar. O'gay ona Elmazni yo'qotish payiga tushadi. O'tin terib kelish bahonasida u Elmazni o'rmonga olib borib adashtirib keladi.

Elmaz boshiga og'ir damlar tushadi. Shu paytda qayerdandir badbashara, sochlari to'zigan, juldur kiyimli, dahshatli ayol paydo bo'ladi. U Elmazning ahvolini bilgach, «Mening sochimni tarab qo'yaysanmi, qizim?!»-deb so'raydi.

Elmaz: «Tarayman, buvijon tizzamga boshingizni qo'ying», -deb iltifot ko'rsatadi. Bu ayol – tog' Onasi edi. Tog' onasi iyib ketib, unga mehribonlik qiladi, o'zi bilan birga muxtasham saroyga boshlab boradi. Elmaz u yerda shahzoda bilan tanishadi va bir-birini sevib qolishadi.

Shunday qilib, qirq kecha, qirq kunduz to'y-tomosha berib shahzoda Elmazga uylanadi. Yetim qiz o'z baxtini topadi. Elmazning bu baxtini ko'rolmagan o'gay ona esa o'zining qizi Esmani ham o'rmonga olib boradi. Voqea yana takrorlanadi, biroq ishyoqmas, tantiq qiz Esma tog' Onasining qahru g'azabiga duchor bo'ladi. Uning taqdiri fojiali tugaydi.

Ma'lumki, XIX asr rus adabiyotining mashhur vakillarining ko'pchiligi Qrim-tatar xalqi folkloridan ijodiy foydalanib asarlar yozdi. Birgina Pushkinning «Boqchasaroy fontani», «Ruslan va Lyudmila», «Shoh sulton haqida ertak» kabi asarlari bunga misol bo'la oladi. Demak, qrim-tatar xalqi folklori juda boy bo'lib, u rus yozma adabiyotining rivojlanishiga ham hissa qo'shgan.²

Cherkez Ali "O'ksik kunlardan xotira" hikoyasida ham qrim-tatar xalq og'zaki ijodidan foydalanadi. Mahallaning eng keksa kishisi bo'lgan Veli bobo tilidan aytilgan rivoyatu-ertaklar XX asrda sadaf donalaridek har tomonga sochilib ketgan qrim-tatarlarning xalq og'zaki ijodini unutib yubormaslik, ularni "hikoya ichidagi hikoya" uslubida bo'lsa ham mustabit tuzum to'fonlaridan olib o'tib, kelajak avlodga yetkazishga bo'lgan bir urinish bo'lsa ajabmas.

Adibning "Sariyog' surtilgan non" hikoyasi o'quvchini cheksiz xayollar og'ushiga olib kirishi tabiiy. Turmush qiyinchiliklaridan qaddi bukilgan insonlar taqdirini ko'rib, diydalarga yosh qalqiydi. "Sariyog' surtilgan non"da muallifning o'z boshidan kechirganlari hikoya qilinadi. Asarda olti yoshli bolakayning onasi yigirmata tuxumni sotib kelish uchun qishloqdoshi Havji Seitumerga qo'shib shaharga jo'natadi. U paytlari shaharga borish uchun qishloq ahli ko'paylashib, yarim tunda poyu-piyoda yo'lga chiqishar, ertalab bozorlik qilishib, ortga qaytishar, to qishloqqa kelgunlaricha yana kech tushib qoldi. Bola uzoq paytlardan buyon shaharga borishni orzu qilardi, lekin unga olib boradigan yo'l mashaqqatlarini xayoliga ham keltirmas edi.

² "Туркий Халқлар Адабиёти-Крим Татар Адабиёти"/САМДУ./ © 2021 Dilimiz ve Edebiyatimiz/
<http://www.samdu.uz/>

“...Aytyapman-ku, u paytlari bola edim, onamning kenja-to’rvaqoqdisi, shaharning otini eshitgandimu, o’zini ko’rmagan, ko’rishni orzu qilib yurgan edim. Lekin, yelkamga to’rva osib, tip-tikka toshloq yo’llarga tirmashib, dahshatli Yayla bo’g’ozidan kechib, qovjiroq o’tlarida oyoq toyg’anadigan so’qoqlaridan o’tib, ming mashaqqatlar bilan o’nqir-cho’nqir chaqirtosh yo’l bilan o’ttiz chaqirim yo’l bosib shaharga borish kerakligini qayoqdan ham bilaman?...”³

Ming bir azob bilan shaharga yetib kelgan qishloq ahli o’zlari bilan olib kelgan narsalarini sotishadi. Bola olib kelgan tuxumni ham. Bozordan Havji Seitumer bolaga uch dona cheburek olib beradi. Bola ikkitasini yeb, bittasini qishloqqa-onasiga olib keladi. Qolgan pulga ikkita non va bir kilo baliq olishadi. Yotar mahali qishloqqa qaytib kelishadi. Havji og’a qilgan bozori to’g’risida hisob berib, bolani eson-omon onasiga topshiradi. ona bolasining sidirilgan, shishgan oyoqlarini iliq suv bilan yuvib, uni qiynab qo’ygani uchun achchiq ko’z yosh to’kadi. Dasturxon boshiga o’tirishgach, bola to’rvasidan ikkita non va baliqni chiqarib qo’yadi. Keyin bir dona cheburekni chiqarib, onasiga uzatadi.

- Bu nima, bolam,-dedi onam.

- Oching, oching, nimaligini ko’rasiz,-dedim.

Onam qutini ochdi va cheburekni ko’rib, shoshib qoldi.

- Tog’ oshib, shuncha yo’l bosib, menga cheburek olib keldingmi, bolam, ma, o’zing ham ye, -deb cheburekning yarmini menga uzatdi.

Yo’q, deganimga qaramay shu bir dona cheburekning yarmini menga yegizdi...⁴

Albatta, onalar farzandi uchun doim hamma narsaga tayyor. O’zi yemay yedirgan, kiymay kiydirgan bu zot ta’rifiga til ojiz. Yoki olti yoshli bolaning onasi uchun bir dona cheburekni tog’u-tosh osha olib kelishi tahsinga loyiq. Axir u yosh bola, hammasini yeb qo’ysa ham hech kim hech narsa demaydi. Bu yoshdagi bolalarning aksariyati ham shunaqa qiladi. Lekin, g’aribona hayot, turmush qiyinchilirlari bolani ancha ulg’aytirgan edi. U hayotning achchiq sharbatini go’dakligidanoq totib ko’rgandi. Onaning ham yolg’iz bolasidan boshqa hech kimi yo’q.

“... shunday qilib, mengacha to’qqiz bolasini qora yerga bergan va qirq yoshga kelganda umr yo’ldoshidan ham ayrilib, qo’l-qanoti qirqilib qolgan onamga ham yordamim tega boshladi. Tez-tez hamqishloqlarimga qo’shib, to’rvasini yelkalab, dashtdan ul-bul terib kelaman, ishqilib, ona bola bir amallab kun ko’ramiz...”⁵

Hikoyani o’qir ekansiz, bexosdan Oybekning “Bolalik”i, Abdulla Qahhorning “O’tmishdan ertaklar”i, Odil Yoqubovning “Muzqaymoq”i yodingizga tushadi. “Ilm ahlining taqdiri siyoh kabi qaro bo’lur” deganlari nahotki qismat bitigi bo’lsa deb o’lab qolasan, kishi...

Asar davomida onaning yolg’iz bolasi uchun qanchalar mashaqqat chekkaniga yana bir bor guvoh bo’lasiz. Bir kuni bola ko’chada g’ildirak o’ynab yurganida, qo’shnisining o’zi tengi bolasi bir parcha sariyog’ surtilgan non yeb kelayotganini krib,

³ Черкез Али “Туғишганлар” (қисса ва ҳикоялар). Тошкент- 1988-й. 165-166-б.

⁴ Черкез Али “Туғишганлар” (қисса ва ҳикоялар). Тошкент- 1988-й. 167-б.

⁵ Ўша китоб 167-б.

uning ham yegisi keladi. Unga ham ozginasini berishini yalinib so'raydi. Qo'shning bolasi rozi bo'lmaydi. Uyga xomush qaytadi. Bolasining holatini ko'rib, gap nimadaligini bilgan ona sho'rlik nima qilarini bilmay qoladi. Hatto, tul xotin deb uni nazarga ilmaydigan, qulayini topsa xo'rlaydigan o'sha xasis qo'shning uyiga bosh egib borib, o'g'li uchun bir parcha sariyog' surtilgan non so'raydi. Lekin, quruq yig'lab qaytadi. Bolasini ham yig'lay-yig'lay yupatadi.

Ko'p o'tmay Havji og'aning sigiri buzoqlaydi. Bir haftadan so'ng qo'shni haqi qilib ozroq sariyog' ham berishadi. Ona darhol bir burda nonga sariyog'ni qalin qilib surtib, bolasiga beradi. Nonni yeb bo'lgunicha undan ko'z uzmay o'tiradi...

Ha, "bolalikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdek" deyishadi. Ya'ni, yoshlikda olingan saboq xotiradan o'chib ketishi amri mahol bo'lganidek, bolalikda kechgan voqealar ham, achchiq xotiralar ham insonning so'nngi nafasigacha yodidan o'chmaydi. Bu haqida hikoya so'nggida muallif shunday deydi:

*"- Mana, shunga ham ellik to'rt yil bo'libdi. Qanchadan-qancha yog'li, yog'siz nonlarni ko'rdim. Lekin, har safar qo'limga sariyog' surtilgan nonni olganda, bu dunyodan kun ko'rmay o'tib ketgan onamning hasratli ko'zlarini ko'rib turaman."*⁶

Asarning o'quvchiga ta'sir qilishi ko'p narsaga bog'liq. Adib uslubi tilining jozibadorligi va boshqalarni aytish mumkin. Shu o'rinda aytish kerakki, mazkur hikoya 1988-yilda Toshkentda "Yosh gvardiya" nashriyotida nashr etilgan "Tug'ishganlar" nomli qissa va hikoyalar to'plamidan o'rin olgan bo'lib, mazkur to'plab qrim-tatarchadan Ahmad A'zam tarjimasida kitoxonlarga taqdim etilgan. Bir tomondan qrim-tatar tili ham bobo turkiy tillar oilasiga mansubligi, ikkinchi tomondan tarjimonning mahorati sababli asarning ta'sir doirasi kengaygan. Qissa va hikoyalarning mutolaasi jarayonida go'yo adib Cherkez Alining o'zi yoningizda turib o'z tilidan hikoya qilib berayotgandek bo'ladi, go'yo. Bu ham tarjimonning ulkan yutug'i deyishimiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda qrim-tatar adabiyotining Cherkez Alidek noyob iste'dod sohiblari ko'p. Bugungi qrim-tatar adabiy muhitida shakllanayotgan va bu borada anchagina kitobxon e'tirofiga munosib bo'lgan ijodkorlar ham talaygina. Hali ularning asarlari keng rakursda o'zbek kitobxonlariga tanish emas. Istaymizki, salohiyatli tarjimonlarimizning, qolaversa, izlanuvchan adabiyotshunoslarimizning asa'y-harakatlari sababli o'zbek kitobxonlari ularning asarlari bilan yaqinroq tanishsinlar. Qrim-tatar adabiyotining ochilmagan qirralarini boricha ko'rsatib bersinlar.

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov Begali. Ismoilbek G'asprali. Biografik ocherk. Toshkent, 1992.
2. Uzoqov Akram "Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xalqlari adabiyoti"/ o'quv qo'llanma/Toshkent, 2007-y.
3. Ali Cherkez "Tug'ishganlar" (qissa va hikoyalar). Toshkent, 1988-y.
4. "Turkiy Xalqlar Adabiyoti-Qrim Tatar Adabiyoti"/SAMDU./2021 Dilimiz ve Edebiyatimiz/ <http://www.samdu.uz/>

⁶ Черкез Али "Туғишганлар" (қисса ва ҳикоялар). Тошкент- 1988-й. 169-б